

**YANGI KONSTITUTSIYANING ZAMONAVIY TIBBIYOT SOHASIDAGI
KENG KO'LAMLIY O'ZGARISHLARI**

Ergashov Maftun Muxitdinovich

*Respublikasi ixtisoslashtirilgan travmatologiya va ortopediya ilmiy-amaliy
tibbiyot markazi qo'l va oyoq panjasi xirurgiyasi bo'limi shifokori*

Tel: + 99897 843-08-08,

Gmail: maftun.ergashov.91@mail.uz

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, Yangi Konstitutsiyaning Yangi O'zbekistonda "Inson qadri uchun" ezgu tamoyili asosida tibbiyot sohasida keng ko'lamliv o'zgarishlar, fuqarolarning salomatligiga e'tibor qaratish, zamonaviy meditsina texnikalari bilan davolash, erkin fikrlash xalq farovonligini yanada oshirish, moddalar kesimidagi munozarali tahlilari olib borilib, asosiy e'tibor inson huquqlari, jumladan ta'lim olish, tibbiy yordamdan foydalanish kafolatlari davlat va fuqarolik jamiyatining jadal rivojlanishi uchun mustahkam huquqiy asos yaratilganligi haqida keng yoritilgan.

Kalit so'zlar: Referendum, yangi Konstitutsiya, konstitutsiya, zamonaviy tibbiyot, yoshlar, fuqarolar sog'ligi, rivojlanish, tibbiy yordam, tibbiy-sanitariya xizmat, sog'lom avlod, salomatlik poyezdi, inson qadri, modda.

Kirish:

Konstitutsiya (lotincha: constitutio — „tuzilish“, „tuzuk“) — bu davlatning asosiy qonuni. U davlat tuzilishini, hokimiyat va boshqaruv organlari tizimini, ularning vakolati hamda shakllantirilish tartibi, saylov tizimi, fuqarolarning huquq va erkinliklari, shuningdek, sud tizimini belgilab beradi.

„Konstitutsiya“ atamasi Qadimgi Rimdayoq bor edi (imperator konstitutsiyasi deb atalgan qonun). Amir Temur „Tuzuklar“i Sharq va Osiyo mamlakatlari sivilizatsiyasiga xos alohida shakldagi konstitutsiyaviy hujjat xususiyatiga ega bo'lgan. U shariat qonunlari bilan bir qatorda O'rta Osiyo xalqlari taqdiriga kuchli ta'sir o'tkazgan. Yevropadagi tarixiy taraqqiyot hozirgi kunda amalda bo'lgan konstitutsiyalarning 2 guruhini vujudga keltirdi. 1-guruh — hozirgi zamon sharoitlaridan keskin farq qiluvchi sharoitlarda qabul qilingan eski konstitutsiyalar. Bu xildagi konstitutsiyalarga 1787yilgi AQSH Konstitutsiyasi, 1831-yilgi Belgiya konstitutsiyasi, 1874-yilgi Shveysariya konstitutsiyasi misol bo'la oladi. 2-guruhga XX asrning 2-yarmida qabul qilingan „yangi avlod“ konstitutsiyalari kiradi. Ular dastlabki konstitutsiyalardan huquq va erkinliklar institutining, konstitutsiyaning himoya qilish mexanizmlari va ijtimoiy muammolarga murojaat qilish mexanizmlarining kengayishi natijasida konstitutsiyaviy tartibga solish hajmining

ko'payishi bilan farq qiladi. Konstitutsiya barcha joriy qonunlarning asosi, oliy yuridik maqomga ega hujjat hisoblanib, unda har bir insonning huquq va majburiyatlari xalqaro umume'tirof etilgan huquqiy asoslar bilan aks etgan. Konstitutsiya davlatchilik belgisidir. Yuridik konstitutsiya ijtimoiy munosabatlar doirasini tartibga soluvchi ma'lum huquqiy normalar tizimi. Haqiqiy konstitutsiya esa — shunday munosabatlarning o'zi, ya'ni real mavjud munosabatlardir. Konstitutsiya o'z shakliga ko'ra, kodekslashtirilgan, kodekslashtirilmagan va aralash turlarga bo'linadi. Kodekslashtirilgan konstitutsiya —konstitutsiyaviy xususiyatga ega barcha asosiy masalalarni tartibga soluvchi bir butun yozma hujjat hisoblanadi. Agar ayni o'sha masalalar bir necha yozilgan hujjatlar bilan tartibga solinsa, u holda konstitutsiya kodekslashtirilmagan hisoblanadi. Aralash turdagi konstitutsiya parlament tomonidan qabul qilingan qonunlar va sud precedentlari bilan birga, odatlar va nazariy sharxlarni ham o'z ichiga oladi, ya'ni qisman yozilgan bo'ladi. O'zgartirish kiritish usuli bo'yicha konstitutsiya yumshoq va qattiq turlarga bo'linadi. Ularning birinchisi oddiy qonun qabul qilish yo'li bilan o'zgartirilishi mumkin. Ikkinchisi maxsus takomillashtirilgan tartibda (parlament a'zolari ovozi malakali ko'pchiligi, ba'zan esa referendum o'tkazish, tuzatishlarni muayyan miqdordagi federatsiya sub'yektlari tomonidan ratifikatsiyalash) o'zgartirilishi mumkin. Amal qilish muddatlari bo'yicha konstitutsiyalar doimiy va muvaqqat turlarga bo'linadi. Davlat faoliyatining turli sohalarida konstitutsiyaga rioya qilinishini nazorat etish Oliy sud yoki Konstitutsiyaviy sud zimmasiga yuklanadi. Shu bilan birga, Asosiy Qonunimiz ko'plab demokratik davlatlarda konstitutsiyaviy Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining umume'tirof etilgan. O'tgan davr mobaynida mamlakatimiz parlamenti Konstitutsiya normalariga muvofiq 8 ta konstitutsiyaviy qonun, 15 ta kodeks, 600 dan ziyod qonunni qabul qildi, 200 dan ortiq ko'p tomonlama xalqaro shartnomani ratifikatsiya qildi va shu tariqa Asosiy Qonunimizni amalga oshirishning yaxlit huquqiy mexanizmi yaratildi. Uning samaradorligini vaqt o'zi ko'rsatib turibdi va bu bugun jahon hamjamiyati tomonidan e'tirof etilmoqda. Konstitutsiyani ishlab chiqish, muhokama etish va qabul qilish jarayoni Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning "Konstitutsiya davlatni davlat, millatni millat sifatida dunyoga tanitadigan Qomusnoma" bo'lganligi, u "xalqimizning irodasini, ruhiyatini, ijtimoiy ongi va madaniyatini" aks ettirishi, uning "xalqimiz tafakkuri va ijodining mahsuli" ekani haqidagi hikmatli xulosalari to'g'ri va asoslangan ekanini yaqqol tasdiqlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Sharq va G'arb, Janub va Shimolning 97 ta mamlakati to'plagan ilg'or konstitutsiyaviy tajribani hisobga olib yaratilgan O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini tayyorlash, muhokama etish, qabul qilish va uning amal qilishi yo'lidagi eng muhim tarixiy voqealar sifatida sanab o'tish mumkin. Konstitutsiyani yaratish— o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilishi. Prezidentlik instituti ta'sis etilishi va yangi davlat ramzlarini tayyorlash

bo'yicha komissiya tuzilishi bilan bog'liqligi. Mustaqillik deklaratsiyasi"ning e'lon qilinishi, Konstitutsiyaviy komissiyaning tashkil etilishi. Birinchi Prezidentimizning Hindistonga 1991-yilgi tashrifi bilan chambarchas bog'liq. Davlat mustaqilligining e'lon qilinishi, 1991 yil 29 dekabrda Prezident saylovi va Davlat mustaqilligi to'g'risidagi referendumning o'tkazilishi. Birinchi Konstitutsiya loyihasining ilk bor matbuotda umumxalq muhokamasi uchun e'lon qilinishidir. Ana shunday mashaqqatli yo'l natijasida shakllantirilgan Konstitutsiyamiz qabul qilingan sana – 8 dekabrni 30 yil xalqimiz munosib bayram sifatida kutib oladi va bir qator faol va fidokor yurtdoshlarimiz konstitutsiyamizning estalik nishonlari bilan taqdirlanib kelmoqda

Barchamizga ma'lumki, 2023 yil 30-aprel kuni yurtimizda juda katta siyosiy jarayon ya'ni referendum bo'lib o'tdi. Ushbu referendum yakunlariga ko'ra, "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy qonuni umumxalq ovoz berish yo'li orqali qabul qilingan deb tan olindi va 1-maydan kuchga kirdi. Buning natijasida Konstitutsiyamiz 65%ga yangilandi, moddalar soni 128 tadan 155taga ko'paydi. Yangilangan Konstitutsiyamizda inson huquq va erkinliklarini kafolatlashga doir bir qancha yangi normalar kiritildi. Yangilangan Konstitutsiyamizda inson huquq va erkinliklarini kafolatlashga doir bir qancha yangi normalar kiritildi. Xususan, Yangilangan Konstitutsiyamizning 19-moddasida asosan, O'zbekiston Respublikasida insonning huquq va erkinliklari xalqaro huquqning umume'tirof etilgan normalariga binoan hamda ushbu Konstitutsiyaga muvofiq e'tirof etiladi va kafolatlanadi. Inson huquq va erkinliklari har kimga tug'ilganidan boshlab tegishli bo'ladi. Shu boisdan ham shu kunga qadar yurtimizda qabul qilingan qonun, qaror, farmon, kodeks va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar borki, ularning barchasi Bosh qomusimizga asoslangan holda ishlab chiqiladi va uni to'ldirib boradi. Bu borada inson qadrini ulug'lash, fuqarolarning huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ta'minlashga alohida e'tibor qaratiladi.

Ma'lumki Prezidentimizning tegishli qarori asosida bepul tibbiy yordam ko'rsatish tizimi joriy etilgan. Unda davlat sog'liqni saqlash xizmatlarining kafolatlangan hajmi doirasida bepul tibbiy yordam ko'rsatilishini ta'minlashi belgilangan. Kafolatlangan xizmatlar doirasiga, shoshilinch tibbiy yordam, bir qator yuqumli kasalliklar bo'yicha birlamchi tibbiy-sanitariya yordami, ijtimoiy ahamiyatga ega kasalliklar va xavfli kasalliklar bo'yicha ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko'rsatish kiradi. Sog'liqni saqlashning birlamchi bo'g'inida va qator davlat davolash-profilaktika muassasalarida, avvalo, qishloq joylarda tibbiy xizmat ko'rsatish, qator yuqumli kasalliklarga qarshi aholini immunlashtirish va vaksinatsiyalash, ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan va atrofdagilar uchun xavf tug'diradigan kasalliklar (sil, onkologik, ruhiy, narkologik, endokrinologik kasalliklarga chalingan bemorlar va kasb kasalliklariga chalingan shaxslar) nazarda tutiladi. Tibbiy-sanitariya xizmatlarining

kafolatlangan hajmi, shuningdek, chaqiruv komissiyalari yo‘nalishi bo‘yicha bolalarni (pullik shifoxonalardan tashqari), 15-17 yoshli o‘smirlarni va chaqiruv komissiyalari yo‘nalishlari bo‘yicha chaqiruv yoshidagi (18-27 yoshli) shaxslarni tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish va davolashni o‘z ichiga oladi. Shuningdek, akusherlik xizmatlarini ko‘rsatish (pullik muassasalar bundan mustasno), bemorlarning imtiyozli toifalari – nogironlar, urush qatnashchilari va faxriylari, yetim bolalarni davlat davolash-profilaktika muassasalarida davolashni o‘z ichiga oladi.

Prezident tibbiy sug‘urta shakllarini rivojlantirish, ekologiya oqibatida fuqarolar sog‘lig‘iga yetkazilgan zararni qoplab berish majburiyatini davlat zimmasiga yuklash, tibbiyot xodimlarining yuksak maqomini ta‘minlash uchun Konstitutsiyaga o‘zgartirishlar kiritishni taklif qildi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tibbiyot xodimlari bilan ochiq murojaatlar, takliflar davomida shifokor bilan bir qatorda bemorlarning fikrlari tinglangan. «Ular orasida alohida ahamiyatga molik bo‘lgan yana bir muhim masala ko‘tarilgan bo‘lib, ijozatingiz bilan, avvalo shu haqda to‘xtalib o‘tmoqchiman. Bu masala sog‘liqni saqlash tizimining huquqiy asoslarini rivojlantirish, aholi, ayniqsa, millatimiz, xalqimizning genofondini saqlashni konstitutsiyaviy asosda alohida himoya qilinadigan sohaga aylantirish bilan bog‘liq», «Inson, uning hayoti, erkinligi, sha‘ni, qadr-qimmatini va boshqa daxlsiz huquqlari jamiyatimizda oliy qadriyat hisoblanadi. Amaldagi Konstitutsiyamizning 40-moddasida „Har bir kishi malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqiga ega“, deb belgilab qo‘yilgan. Ishonchim komil, biz xalqimiz sog‘lig‘ini saqlash sohasida ulkan maqsad va vazifalarni oldimizga qo‘yayotgan hozirgi sharoitda, ushbu konstitutsiyaviy moddaning o‘zi yetarli emas», — dedi Shavkat Mirziyoyev. Prezident so‘zlariga ko‘ra, bugungi zamonning o‘zi tibbiyot tizimining konstitutsiyaviy asoslarini yanada mustahkamlashni talab etmoqda «Shuning uchun Asosiy qonunimizda milliy sog‘liqni saqlash tizimini aholi salomatligini sifat jihatidan yaxshilashga xizmat qiladigan yuksak malakali zamonaviy sohaga aylantirish masalasi ham, hech shubhasiz, to‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qiladigan konstitutsiyaviy qoida sifatida o‘z ifodasini topishi zarur. Aminmanki, O‘zbekiston fuqarolari qonunda, eng avvalo, Konstitutsiyamizda belgilab qo‘yilgan kafolatli tibbiy yordam turlaridan bepul foydalanish huquqiga ega», — dedi prezident. Shu maqsadda, turli tibbiy sug‘urta shakllarini rivojlantirish uchun konstitutsiyaviy asos yaratishimiz kerakligi ta‘kidlandi.

«Davlat hozirgi va kelajak avlodlar oldidagi ulkan mas‘uliyatni anglagan holda, atrof-muhitni asrashga qaratilgan samarali chora-tadbirlarni amalga oshirishi shart. Chunki sof va toza ekologiyasiz aholi sog‘lig‘i va millat genofondini saqlash haqida so‘z yuritishdan ma‘no yo‘q», — dedi davlat rahbari.

Bugungi kunda mamlakatimiz keng jamoatchiligi Yangi Konstitutsiya loyihasini chuqur o‘rganmoqda. Fuqarolar Asosiy qonunga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish bo‘yicha ko‘plab takliflar bildirmoqda. Unga ko‘ra,

Konstitutsiyaning 40-moddasiga sogʻliqni saqlashga oid quyidagi normalar kiritilmoqda:

– Oʻzbekiston Respublikasi fuqarolari tibbiy yordamning qonunda belgilangan hamda tez va shoshilinch tibbiy yordamni ham oʻz ichiga oladigan kafolatlangan hajmini bepul olishga haqli.

– Davlat sogʻliqni saqlashning davlat, xususiy va boshqa tizimlarini rivojlantirish, sanitariya-epidemiologik osoyishtalikni taʼminlash, tibbiy sugʻurtaning turli shakllarini rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish boʻyicha zarur choralar koʻradi.

– Davlat barqaror rivojlanish prinsipiga muvofiq atrof-muhitni yaxshilash, tiklash va himoya qilish, ekologik muvozanatni saqlash boʻyicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi.

– Davlat Orolboʻyi mintaqasining ekologik tizimini himoya qilish va tiklash, uni ijtimoiy, iqtisodiy jihatdan barqaror rivojlantirish boʻyicha zarur choralar koʻradi. Yangi Konstitutsiyaga har bir inson sogʻlom va qulay atrof-muhit, uning holati toʻgʻrisida ishonchli maʼlumot olish huquqiga ega, ekologik huquqbuzarlik tufayli uning sogʻligʻi yoki mol-mulkiga yetkazilgan zararni qoplash toʻgʻrisidagi qoʻshimcha modda yaʼni 401-modda kiritilmoqda.

Shuni alohida taʼkidlash joizki, Konstitutsiyaviy norma sifatida bepul tibbiy yordam koʻrsatish toʻgʻrisidagi moddaning kiritilishi eʼtiborga molikdir. Bu esa oʻz navbatida tibbiy yordamning kafolatlangan hajmi boʻlib, Oʻzbekiston fuqarolarining salomatligi davlat himoyasida ekanligiga chinakam ishonch bagʻishlaydi. Barchamizga maʼlumki bir necha yillardan buyon boquvchisini yoʻqotgan, nogironligi bor shaxslarga order asosida bepul tibbiy xizmat koʻrsatib kelinadi. Yaqinda order berish tartibiga ham oʻzgartirishlar kiritildi.

Aholining talab va istaklaridan kelib chiqib, bemorlarni elektron navbatga olish va elektron hujjatlashtirish hamda sugʻurtadan foydalanish tartibi joriy etildi. Respublika ixtisoslashtirilgan travmatologiya va ortopediya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi bosh shifokori Muhiddin Qodirov yuqoridagi savollarimizga javob berdi. Davlat dasturida koʻrsatilgan chekka hududlardagi va borish qiyin boʻlgan tumanlar aholisini koʻchma tibbiy-ijtimoiy yordam brigadalari tomonidan chuqur tibbiy koʻrikdan oʻtkazish, ularga manzilli muruvvat yordamini koʻrsatish, ekologik noqulay hududlar aholisiga, ayniqsa yoshi ulugʻ keksa onaxon-otaxonlarga tibbiy-ijtimoiy yordam koʻrsatish uchun “Salomatlik poyezdi” Toshkent – Qoʻngʻirot – Qoraqalpogʻiston – Jasliq yoʻnalishi boʻyicha Orolboʻyiga yetib keldi. “Sogʻlom avlod uchun”, “Salomatlik poyezdi bilan” insonparvarlik yuklari – jami 5 milliard soʻmga yaqin dori-darmon, tibbiyot anjomlari, antibiotiklar va boshqalardan iborat muruvvat yordami beriladi. Joriy yil 11 may kundan oʻz ish faoliyatini boshlagan “Salomatlik poyezdi”ning yuqori malakali shifokorlari tomonidan bir hafta davomida yoshi keksa

otaxon va onaxonlar, nogiron bolalar, xotin-qizlar, boquvchisini yo‘qotgan va ko‘p bolali oilalar tibbiy ko‘rikdan o‘tkaziladi. Shu bilan bir qatorda aholi orasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qiluvchi uchrashuvlar tashkil etiladi.

48-modda. Har kim sog‘lig‘ini saqlash va malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqiga ega. O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari tibbiy yordamning kafolatlangan hajmini qonunda belgilangan tartibda davlat hisobidan olishga haqli. Davlat sog‘liqni saqlash tizimini, uning davlat va nodavlat shakllarini, tibbiy sug‘urtaning har xil turlarini rivojlantirish, aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligini ta‘minlash choralarini ko‘radi. Davlat jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish, aholi o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini shakllantirish uchun shart-sharoitlar yaratadi.

26-modda. Insonning sha‘ni va qadr-qimmatini daxlsizdir. Hech narsa ularni kamsitish uchun asos bo‘lishi mumkin emas.

Hech kim qiynoqqa solinishi, zo‘ravonlikka, boshqa shafqatsiz, g‘ayriinsoniy yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi muomalaga yoxud jazoga duchor etilishi mumkin emas. Hech kimda uning roziligisiz tibbiy va ilmiy tajribalar o‘tkazilishi mumkin emas.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yangi tahriri 2023 yil 1 maydan e‘tiboran kuchga kirdi. 30 aprel kuni bo‘lib o‘tgan referendum natijasiga ko‘ra 11 ta moddadan iborat tegishli qonunning qabul qilinishi asos bo‘ldi. Bu qonunning 1-moddasiga Konstitutsiyaning yangi tahriri ilova qilingan. Bunga qadar 1992 yildan buyon konstitutsiyaga jami 15 marta o‘zgartish kiritilgan edi. Bu safar esa o‘zgarishlar ko‘lami kattaligi sabab hujjatning yangi tahriri qabul qilindi. Yangilanish natijasida, bosh qomusdagi moddalar soni 128 tadan 155 taga, undagi normalar esa 275 tadan 434 taga oshdi. Umuman, rasmiylarga ko‘ra, konstitutsiya 65 foizga yangilangan. Bugungi kunda tibbiy xizmatlarning sifat darajasi oshib, yangi zamonaviy yo‘nalishlar, davolash va diagnostika usullari, noyob ilmiy-amaliy tajribalar shakllanmoqda. Buni birgina misol, ya‘ni qisqa davrda buyrak, jigar, qo‘l, oyoq va o‘zak hujayralarda 700 dan ortiq murakkab operatsiyalar muvaffaqiyatli amalga oshirilganida ham ko‘rish mumkin. Bundan tashqari, jamiyatda yashovchi har bir shaxsning malakali tibbiy xizmatdan foydalanishi uning Vatanga bo‘lgan ertangi ishonchini yanada oshiradi. Shunga ko‘ra, Konstitutsiyamizda mamlakatda inson huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta‘minlash, qadr-qimmatini ulug‘lashda sog‘liqni saqlash tizimi ustuvor ahamiyat kasb etishi qayd etilgan.

Yangi Konstitutsiyaning 40-moddasiga sog‘liqni saqlashga oid normalar qo‘shilgan. Bu haqida batafsil O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati ma‘lumot beradi. Prezidentimizning «Sog‘liqni saqlash tizimida olib borilayotgan islohotlarni izchil davom ettirish va tibbiyot xodimlarining salohiyatini oshirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish to‘g‘risida»gi Farmoniga ko‘ra, nodavlat tibbiyot tashkilotlariga bir necha faoliyat turlari bilan shug‘ullanishga ruxsat

berildi. Jumladan, 2021 yil 1 iyuldan boshlab nodavlat tibbiyot tashkilotlariga: maxsus avtotransport vositasida tashkil etiladigan «mobil tibbiyot» xizmati yordamida joyiga chiqqan holda aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari Sog'liqni saqlash vazirligi bilan birgalikda ushbu chora-tadbirlarni amaliyotga to'liq joriy etish maqsadida nodavlat tibbiyot tashkilotlari uchun zarur sharoitlar yaratishga mas'ul etib belgilandi. Viloyatida sog'liqni saqlash tizimida ham qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Bunga misol Buxoro viloyatda 248 ta davolash profilaktika va yordamchi muassasalari faoliyat yuritayotgan bo'lib, muassasalarning quvvati 6 ming 320 o'rinni tashkil qiladi. O'zbekistonda huquqiy davlatning barpo etilishi, demokratik jamiyatning vujudga kelishi, fuqarolar sog'ligini saqlash masalasiga e'tiboming kuchayishi, jumladan, mamlakatda sog'liqni saqlash tizimining isloh etilishi barcha tibbiyot xodimlarining faoliyatini huquqiy jihatdan aniq me'yorlashni taqozo etadi. Fuqarolarning sog'lig'i va hayoti faqat tibbiy faoliyat obyekti bo'lmasdan, balki turli xil huquqiy faoliyat jihatlariga ega. Binobarin, jamiyatda huquqiy savodxonlik va madaniyat darajasining ortishi ushbu zaruriyatni yana bir bor ta'kidlaydi. Shu sababli tibbiyot xodimlari faoliyatini huquqiy me'yorlash, fuqarolarning sog'liqni saqlash bo'yicha qonuniy huquq va manfaatlarini himoya etish muammosi alohida siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy ahamiyat kasb etadi. Har bir tibbiyot xodimi umum qabul qilingan axloqiy, etik va huquqiy me'yorlarga rioya qilgan holda, nafaqat o'ziga yuklatilgan vazifalarni aniq bilishi va sifatli bajarishi zarur, balki ushbu

vazifalarni umuman yoki lozim darajada bajarmaganda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan javobgarlik haqida to'liq tasavvurga ega bo'lishi kerak. Ko'rib chiqilayotgan Qonunda bemor huquqlariga alohida e'tibor berilib, ular 24-moddada keltirilgan. Ushbu moddaga muvofiq tibbiy yordamga murojaat qilgan va bu yordamni olayotgan paytda bemorlar quyidagi huquqlarga egalar:

- tibbiyot va xizmat ko'rsatuvchi xodimlarning hurmat va insoniy munosabatda bo'lishi;
- shifokor va davolash-profilaktika muassasasini tanlash;
- sanitariya-gigiena talablariga javob beradigan sharoitda tekshiruvdan o'tish, davolanish va parvarish qilinish;
- O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan belgilangan tartibda o'z iltimosiga ko'ra boshqa mutaxassislarining konsilium qilishi va ulardan maslahat olish;
- tibbiy yordamga murojaat qilganligi, sog'lig'ining holati, ko'yilgan tashxis va tibbiy muolajalar chog'ida olingan boshqa ma'lumotlarning sir saqlanishi;
- tibbiy muolajalarga o'z ixtiyori bilan rozilik berish yoki rad etish;
- o'z huquq va burchlari, sog'lig'ining holati haqida ma'lumot olish va bu ma'lumotlarni uning manfaatlarini ko'zlagan holda bersa bo'ladigan shaxslarni

tanlash;

- ixtiyoriy tibbiy sug'urta doirasida tibbiy va boshqa turdagi xizmatlardan foydalanish;

- tibbiy yordam ko'rsatish jarayonida sog'lig'iga zarar etkazilgan taqdirda ko'rilgan zaraming o'mi qonunchilikda belgilangan tartibda qoplanishi;

Shu bilan birga Qonunning 28-moddasida fuqarolardagi kasallik atrofdagilarga xavf tug'dirgan holatda shaxs yoki ulaming qonuniy vakillarning roziligisiz belgilangan asos va tartibda tibbiy yordam ko'rsatilishi (tibbiy tekshiruv, kasalxonaga yotqizish, kuzatish va yakkalab qo'yish) mumkinligi qayd etilgan. Ushbu me'yor uchun misol tarzida atrofdagilarga tahdidli yuqumli kasalliklarni keltirish mumkin. Qonunning "Fuqarolarga tibbiy-ijtimoiy yordam ko'rsatish" deb nomlangan yordamning turli xil ko'rinishlari berilgan. Xususan, 29-moddaga binoan birlamchi tibbiy-sanitariya yordami davlat sog'liqni saqlash tizimi muassasalari tomonidan aholiga tibbiy xizmat ko'rsatishning asosiy, qulay va bepul turi bo'lib, uning tarkibiga quyidagilar:

- keng tarqalgan kasallik, shikastlanish, zaharlanish va boshqa shoshilinch holatlarni davolash;

- sanitar-gigienik va epidemiyaga qarshi chora-tadbirlar, eng muhim kasalliklarning tibbiy profilaktikasini o'tkazish;

- oila, onalik va bolalikni muhofaza etish, turar-joylarda fuqarolarga birlamchi tibbiy-sanitariya yordami ko'rsatish bilan bog'liq boshqa chora-tadbirlar o'tkazish. Xususiy va boshqa sog'liqni saqlash tizimlari muassasalarida birlamchi tibbiy-sanitariya yordami asosan shartnoma asosida birlamchi tibbiy-sanitariya yordami asosan shartnoma asosida ko'rsatiladi. 10-modda Fuqarolarning ayrim guruhlari bundan istisno bo'lib, ularga mazkur yordam bu muassasalarda ham bepul ko'rsatiladi. Ushbu guruhlar tarkibi, yordamning hajmi, turlari, xizmatni ko'rsatish va u bilan bog'liq harajatlarni qoplash tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi. Aholiga ko'rsatiladigan birlamchi tibbiy-sanitariya yordamining hajmi va tartibini O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi belgilaydi. Fuqarolarning hayoti xavf ostida bo'lganda tibbiyot xodimlari ularni tibbiyot muassasasiga olib borish uchun har qanday transportdan foydalanishi mumkin. Zero, voqea sodir bo'lgan joyda tibbiyot xodimlari etib kelgunga qadar birlamchi shoshilinch yordam militsiya, yong'indan saqlash, avariya xizmati va transport tashkilotlari xodimlari tomonidan ko'rsatilishi shart. Ayni shu sababli ushbu sohalar bo'yicha xodimlarni tayyorlash o'quv dasturiga birlamchi tibbiy yordam ko'rsatishga oid bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish kiritilgan. 31-moddaga binoan ixtisoslashgan tibbiy yordam fuqarolarga profilaktika, tashxis qo'yish, davolashning maxsus usullarini hamda murakkab tibbiy texnologiyalardan foydalanishni taqozo etuvchi kasalliklar hollarida ko'rsatiladi. Bu yordamning turlari, hajmi va sifat

standartlari O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan belgilanishi e'tirof qilingan.

Xulosa:

Xulosa qilib aytganda fuqarolar sog'lig'ini saqlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib, mazkur tushuncha har bir fuqaroning jismoniy va ruhiy salomatligini muhofaza etish va mustahkamlash, uzoq hamda faol hayot kechirishi va sog'lig'ini yo'qotganda tibbiy va boshqa yordam olishiga qaratilgan siyosiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ijtimoiy, ilmiy, tibbiy, sanitar-gigienik va epidemiologik choratadbirlarning majmuasini o'zida mujassamlashtiradi. "Sog'likning qadriga yet kasal bo'lmasdan burun". Topib aytilgan ushbu hikmatning mag'zini tani joni sog' odam unchalik tushunmasligi mumkin. Ammo inson betob bo'lgach, dardmand bo'lgach, sog'lik nechog'lik qimmat boylig' ekanligini yaxshi anglaydi. Yaxshiyamki, bunday vaziyatlarda joningizga oro kiradigan, salomatligingizga kamarbasta bo'ladigan shifokorlar bor. Bunda esa "Tibbiyotdagi islohotlar inson qadri uchun" tamoyili asosida Yurtboshimiz tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar ham tibbiyot xodimlarining og'irini yengil qilib, yurt doshlarimizning sog'liklarini yanada mustahkam lashga xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. Vrach faoliyatining huquqiy asoslari. G'iyosov Z.A
2. Ivanyushkin A. Ya – Professional etika v meditsine . MA ., Med ,1990,
3. Rustamboev M. X Jinoyat huquqi (umumiy qism),- T., Ilm Ziyosi
4. Konisitutsiya kitobi tibbiyotga doir moddalar
5. Prezident asarlari, nutqlari
6. <https://www.gazeta.uz/oz/2022/03/18/constitution/>
7. https://uza.uz/oz/posts/yangi-konstitutsiyada-bepul-tibbiy-yordamning-kafolatlari_389308